

**MAMLAKATLARNING XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARINI BAJARISHLARIDA XALQARO
NODAVLAT TASHKILOTLARINING ROLI**

Soyibnazarov Nurmuhammad Abdunazar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik" fakulteti 3-kurs talabalari

Quronboyeva Shohsanam Shuhrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik" fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya

Mazkur maqola ekologiya sohasidagi xalqaro majburiyatlar va ularning mamlakatlar tomonidan bajarilishi, ekologik nazorat qilish vositalari, jamoatchilik va nodavlat tashkilotlarning ushbu masalalarda o'zni batafsil tahlil qilingan. Bugungi kunda atrof-muhit va uning muhofazasi bilan bog'liq ishlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki insoniyat so'nggi asrlarda sanoat inqilobi va ishlab chiqarish, texnika vositalari rivojlanishi bilan tabiiy muhitga katta miqdorda zarar yetkazmoqda. Og'ir sanoat mahsulotlari va ularning chiqindilari nafaqat atrof-dagi flora va fauna, balki hududda yashovchi aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi hammaga ma'lum. Ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan masalalarni hal qilishda xalqaro shartnomalar, davlatlarning o'z milliy qonunchiligi, jamoatchilik nazorati hamda nodavlat ekologik tashkilotlarning hissasi kattadir. Xususan, "Greenpeace" – dunyoda ekologik muammolarni ochish va ularni bartaraf etishda sobitqadam bo'lgan xalqaro nodavlat ekologik tashkilot. Ushbu tashkilotning umumiy vazifasi yer yuzidagi hayotni to'liq rang-barangligida saqlab qolishdan iborat. Bunndan tashqari, maqolada boshqa ayrim ekologik tashkilotlar va ularning vazifalari, yer yuzi bo'ylab amalga oshirayotgan ishlari hamda qancha qamrovni egallagani, kelajakda kutilayotgan natijalari hamda davlatlarning bosh qonunlarida ekologiya sohasiga oid moddalarini qiyoslash orqali unga bo'lgan e'tibori qanchalik ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, mamlakatimiz, O'zbekiston Respublikasida ham atrof-muhit muhofazasi, ekologik majburiyatlarni bajarishda davlat ishtiroki, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining roli va belgilab olgan yo'nalishlari batafsil tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, muhofazalash, davlat qo'mitasi, ekologik majburiyatlar, Greenpeace, nodavlat tashkilotlar.

So'nggi yillarda atrof-muhit va uning muhofazasiga bo'lgan e'tibor oldingi yillardan ancha kuchaygan. Xalqaro ekologiya bu – ayrim davlatlar atrof-muhiti milliy tizimi va yuridik amal qilish doirasidan tashqaridagi atrof-muhitga turli xil manbalardan yetkaziladigan zararlarning oldini olish va bartaraf etishga doir davlatlar faoliyatini tartibga soladigan tamoyillardan iborat. Xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish XIX asrda ikki davlat o'rtasidagi tabiiy resurslardan oqilona va tabiatga zarar yetkazmaslik to'g'risidagi shartnomalardan boshlangan bo'lsa, keyinchalik ekologiya muammolariga bag'ishlangan konferensiyalar va uning natijalari – rezolyutsiya va konvensiyalar qabul qilinishi uni ratifikatsiya qiladigan har bir davlat uchun tom ma'noda ekologik majburiyat yukladi. XX asr boshlaridan har bir davlatning qabul qilingan Konstitutsiyalarida "atrof-muhit muhofazasi", "ekologiya"

“zarar yetkazmaslik” tushunchalari o‘rin egallay boshladi. Asosiy Qonunimizda ham tabiat — jamiyat tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normalar belgilangan bo‘lib, ular ekologik huquqiy munosabatlar poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiyamizning bir nechta moddasida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanish bilan bog‘liq ekologik-huquqiy normalar mustahkamlangan. Jumladan, 50-moddada fuqarolarning ekologik majburiyatlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlanganini, 54-moddada esa shaxsning mulkdan foydalanish huquqi ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shartligi belgilab qo‘yilgan. 55-moddada O‘zbekiston Respublikasida umummilliy boylik turlari sanab o‘tilgan sohaga oid shu kungacha 30 ga yaqin qonun qabul qilindi va 200 dan ortiq normativ hujjat tasdiqlangan¹. **Xalqaro doiraga nazar tashlasak**, bir qator xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining tahlili ularda ekologik-huquqiy normalar turlicha tartibga solinganligidan guvohlik beradi. **Masalan, Gretsiyada 1975-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi 24-moddasida** “Tabiiy va madaniy atrof muhitni muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi” deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek,

- ✓ Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida davlatning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash singari mustaqil funksiyalari mavjudligi mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasining 15-moddasi, Bolgariya Konstitutsiyasining 31-moddasi);
- ✓ Tabiiy obyektlar va resurslarga nisbatan davlatning mutlaq mulk huquqi belgilab qo‘yilgan (Vengriya Konstitutsiyasining 8-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasining 12-moddasi);
- ✓ Xalq xo‘jaligini va tabiatdan foydalanishni rivojlantirishda xalq xo‘jaligini rejalashtirish, xomashyo va resurslarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olish, ularning rejali taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish kabi normalar mustahkamlab qo‘yilgan. (Vengriya Konstitutsiyasining 7-moddasi);
- ✓ Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini shakllantirish. Ayni damda ta‘kidlash o‘rinliki, ko‘p hollarda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitda yashash huquqi tabiiy muhitni muhofaza qilish majburiyati bilan bog‘lanadi (GFR Konstitutsiyasining 34-moddasi);
- ✓ Tabiatni muhofaza qilishda jamoat birlashmalari va harakatlarning o‘rni mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasi 29-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasi 24-moddasi);
- ✓ Davlatning mamlakat va jamiyatning tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha ichki va tashqi siyosatiga oid prinsiplarining yaxlitligi (Vengriya Konstitutsiyasining 20-moddasi).

Bundan tashqari, davlatlarning ekologik majburiyatlari va uning bajarilishi yuzasidan jamoatchilik nazorati ham ekologiya sohasining ulkan yutuqlaridan biridir.

Avstraliya hukumati tomonidan 1994 yilda “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unda atrof-muhitga zarar yetkazish, noqulayliklar va ifloslanishning oldini olish majburiyatlari ro‘yxati keltirilgan². Ushbu qonun Avstraliyaning shtatlarida huquqbuzarliklar yoki qonunbuzarliklar aniqlanganda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan majburlov vositalarini belgilaydi. Misol uchun, Kvinslendda yashovchi aholi uchun qo‘llaniladigan ikkita asosiy vazifa:

¹ **B.Alixonov. ilmiy maqola:**“Konstitutsiya - atrof-muhit muhofazasining huquqiy kafolati”.

² <https://environment.des.qld.gov.au/management>

• **umumiy ekologik burch** – bu inson atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoki yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatni amalga oshirmasligi, agar zararning oldini olish yoki kamaytirish choralari minimum darajada ko'rilmagan bo'lsa;

• **atrof-muhitga yetkazilgan zarar to'g'risida xabardor qilish majburiyati** - atrof-muhitga jiddiy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki tahdid soladigan voqea sodir bo'lganligi to'g'risida boshqaruv organi, yer egasi yoki egalik qiluvchini xabardor qilish.

Qisqa qilib aytganda, har bir davlatdan ekologik majburiyatlarni bajarish turlicha belgilangan: ba'zi davlatlarda hukumatning o'zi mas'ul bo'lsa, boshqalarida davlat va fuqarolarning birday burchi ekanligi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro darajada belgilanadigan ekologik majburiyatlarni bajarishda bir qator ekologik harakatlar mavjud, ammo hanuzgacha nodavlat ekologik tashkilotlar mavjud emas. Asosiy faoliyatni hukumat tomonidan Mustaqillik yillaridan so'ng tuzilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni bilan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sifatida qayta tashkil etilib ma'lum yo'nalish va funksiyalar belgilandi. Jumladan,



Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va takror ishlab chiqarish sohasida davlat boshqaruvining rolini oshirish; atrof muhitning maqbul ekologik holatini, ekologik tizimlarni, tabiiy komplekslarni va alohida obyektlarni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash; chiqindilarni boshqarish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, joylashtirish, qayta ishlash va utilitatsiya qilishning samarali tizimini tashkil etish; yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratini o'tkazish, atmosfera havosini muhofaza qilish; ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, yagona ekologik va resurslarni tejash siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash; ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o'simliklar, zoologiya va botanika kolleksiyalarini ko'paytirish va parvarish qilish uchun pitomniklarni davlat ro'yxatiga olish; Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ekologik ta'lim, targ'ibot va ta'limni tashkil etish, shuningdek, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi funksiyalarni o'ziga maqsad qilib olgan³.

³ <http://uznature.uz/uz/site/page?numer=103>

Bilamizki, atrof-tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofazasining obyektiga yerning butun Sayyora muhiti, dunyo okeanlari va uning tabiiy boyliklari bo'lgan atmosfera havosi, yer atrofi kosmik fazosi, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv boyliklari, yerning genetik fondi kiradi. Ushbu obyektlarni muhoza-fazasida xalqaro ekologik tashkilotlarning o'rni beqiyos. Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning 9 ta ixtisoslashgan muassasalari ekologiya sohasiga oid butun dunyodagi amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib, to'ldirib turadi. Shuningdek, BMT tashkil etgan turli ekologik dasturlar va loyihalar hanuzgacha ma'lum funksiyalarni bajarib kelmoqda. Shulardan biri, BMT Atrof-muhit dasturi(UNEP) 1972-yilda tashkil etilgan⁴(shtab-kvartira- Nayrobi, Keniya) bo'lib, tarkibi 3ta asosiy bo'limdan iborat:

1. Boshqaruvchilar Kengashi;
2. Atrof-muhit muhofazasini birlashtiruvchi Kengash;
3. Atrof-muhit fondi.

Faoliyati doirasida xalqaro ekologiya sohasida 8 ta asosiy yo'nalishni belgilab olgan:

- Atrof-muhit sanitariyasi;
- Inson salomatligi
- Yer-suv muhofazasi;
- Tabiat, genetik resurslar muhofazasi;
- Jahon okenlar va qazilma boyliklari oqilona foydalanishi;
- Tabiiy resurslar savdosi;
- Atrof-muhit muhofazasi sohasida mutaxassislar tayyorlash;
- Xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalashtirish.

Xalqaro nodavlat ekologik tashkilotlarga to'xtaladigan bo'lsak, ular tomonidan Yer yuzi bo'ylab mintaqalarda ekologik nazoratni amalga oshiriladi. Quyida ulardan ba'zilarini qisqacha tahlil etamiz:

1. WWF(World Wildlife Fund) – ushbu xalqaro jamoat tashkiloti 1961-yilda tuzilgan⁵. Shtab-kvartirasi Shveysariyada joylashgan. Buntun dunyodagi yo'qolib ketayotgan yoki yo'qolish arafasida turgan o'simlik va jinivorlarni himoya qilishni o'ziga vazifa qilib olgan.
2. Rim klubi – 1968-yilda Aurelio Pacheli tomonidan tuzilgan bo'lib, hozirgi kunda 30dan ortiq davlatlarda bo'linmalari mavjud⁶.

Tabiiy –muhit muhofazasi va xalqaro maydonda murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik global muammolarni hal qilish yuzasidan tashkil etilgan.

3. Xalqaro yashil xoch Tashkiloti – 1993-yilda Rio(Brazilia) da Mixail Gorbachev tomonidan tuzilgan. Shtab-kvartirasi Jeneva shahri bo'lib, 27ta davlatda bo'limlari mavjud. Uning birinchi va asosiy missiyasi “ barqaror va xavfsiz kelajakni ta'minlash uchun xavfsizlik, qashshoqlik va atrof-muhit buzilishining umumiy muammolariga javob berish⁷”dir.

4. Xalkaro yuridik tashkilot – 1952-yilda tuzilgan bo'lib, atrof muhit muhofazasini yuridik aspektlarni, xalqaro inson huquqlari va xalqaro standartlarni ishlab chiqishda ko'maklashadi.

⁴ <https://www.unep.org/about-un-environment>

⁵ <https://www.worldwildlife.org/pages/our-values>

⁶ <https://www.clubofrome.org/about-us/secretariat/>

⁷ <https://www.gcint.org/what-we-do>

5. Xalqaro ekologik sud – xalqaro ekologiya sohasida yzuaga keladigan nizolarni hakamlilik sudi tamoyillari asosida hal qilish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, mutaxassislarni tayyorlash masalalari va tomonlarning milliy qonunchilig hamda pretsedentlar ga tayanib ishlarni hal qiladi. Shu bilan birga, yana bir xalqaro doirada katta o'ringa ega nodavlat ekologik tashkilot – "Greenpeace" haqida batafsil to'xtalamiz.

Greenpeace – dunyoda ekologik muammolarni ochish va ularni bartaraf etishda sobitqadam bo'lgan xalqaro nodavlat ekologik tashkilot hisoblanadi.

Hozirda u o'zining missiyasini quyidagicha ifodalaydi:

- Global ekologik muammolarni majburlash yoki zo'ravonliksiz bartaraf etish, yashil va tinch kelajak uchun ijodiy qarama – qarshiliklardan foydalangan holda mustaqil tashviqot olib borish;

- Yerdagi yashil hayotning xilma – xilligini unga ijobiy ta'sir o'tkazish orqali saqlab qolishdir.

Yashil va tinch dunyo haqidagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda Greenpeacening yaqin o'tmishi XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Dastlab u yerdagi yashil dunyoni saqlab qolish insoniyat kelajagi uchun uning oldida turgan eng global muammoga aylanishini ko'ra bilgan kichik faollar jamoasidan tashkil topdi va shakllantirildi. Mana bugunga kelib haqiqatdan ham ularning qarashlari va fikrlari oz tasdig'ini topgan holda yerning yashil hayoti va umuman ekologiya va uning muamolari insoniyat qayg'urishi shart va zarur bo'lgan masalaga aylangan. Bugungi kunga kelib Greenpeace xalqaro ekologik tashkilot bo'lib, uning dunyo bo'ylab 2,8 million tarafdorlari va 41 mamlakatda milliy va mintaqaviy vakolatxonalari mavjud. Ushbu raqamlar yil sayin ko'payib bormoqda va bu insonlarning ekologik madaniyati o'sib borayotganidan dalolat beradi. Greenpeacening shtab-kvartirasi Niderlandiyaning Amsterdam shahrida joylashgan.

Greenpeace notijorat tashkilot va nodavlat tashkilotdir. U turli qit'alarda yashovchi va turli tillarda so'zlashuvchi turli rangdagi odamlarni birlashtiradi. Ushbu tashkilotning umumiy vazifasi yer yuzidagi hayotni to'liq rang-barangligida saqlab qolishdir. Greenpeace hukumatlar, korporatsiyalar yoki siyosiy partiyalarning xayriyalarini qabul qilmaydi, lekin individual tarafdorlar va jamg'arma grantlariga tayanadi. Greenpeace hech qanday siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlamaydi. Shunga qaramay, uning a'zolari barcha siyosiy kuchlar bilan muloqot olib boradi va atrof-muhit farovonligi uchun zarur bo'lgan qonunlarni tasdiqlash va qabul qilish uchun kurashadi. Global tashkilot sifatida Greenpeace sayyoramizning biologik xilma-xilligi va atrof-muhitga tahdid soladigan eng muhim global tahdidlarga e'tibor qaratadi. U iqlim o'zgarishini to'xtatish, okeanlar va ulardagi hayotni qutqarish, kit ovlashni to'xtatish, genetik muhandislikka yo'q deyish, yadroviy tahdidni to'xtatish, zaharli kimyoviy moddalarni yo'q qilish missiyalarini olib boradi.

Greenpeace maqsadi – ekologik jinoyatchilarni fosh qilish, hukumat va korporatsiyalar atrof-muhit va uning kelajagini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlarini bajara olmasalar, ularga qarshi chiqishdir.

2021 –yilda 358 nafar inson huquqlari himoyachilari halok bolgan, ularning 59 foizi yer, atrof mutit va mahalliy aholi huquqlarini korporatsiyalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishidan himoya qilgan. Ushbu davom etayotgan inqirozlar oldida, ijobiy natijalar ham yo'q emas, masalan, dunyo bo'ylab 77 ta davlat plastik qoplarga taqiq qo'yganini e'lon qildi, Indoneziya sudi prezident va gubernatorni fuqarolarni himoya qilishda beparvo deb topib ularga Jakartadagi havo ifloslanishi masalasini hal qilish borasida jiddiy qaror va ijroni ta'minlash uchun toshiriqlar berildi. Germaniya oliy konstitutsiyaviy sudi hukumatni iqlimni muhofaza qilish choralari yetarli emas deb topdi. Avstraliyada esa atrof muhit

vaziri yoshlarni iqlim inqirozidan himoya qilish majburiyatini oldi. Dunyoda birinchi marta bunday vazifa tan olinishi bo'ldi.

“Oldinda hali sayyoramizni himoya qilish va adolatni targ'ib qilish uchun ko'p ishlar qilinishi kerakligi aniq. Greenpeace bizni ushbu maqsadlarni amalga oshirishga birlashtirishda davom etadi, biz yer yuzida milliardlagan odamlarmiz – tabiat esa bizda bitta. Harakat qilsak – butun dunyo bo'ylab tinch, yashil va adolatli kelajakni birgalikda yarata olamiz” – deydi tashkilotning xalqaro kengashi raisi Ayesha Imam⁸.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun XXI asr texnologiya va ishlab chiqarish, sanoat rivoji, tabiat ham barchasi insoniyat uchun qulayliklar yaratish uchun xizmat qilmoqda. Bu albatta, juda ko'p imkoniyatlar afzalliklar yaratishi bilan birga, o'zining salbiy ta'sirlarini ham ko'rsatmoqda. Bizning ehtiyojlarimiz uchun olinayotgan barcha xomashyo turlari yon atrofimizdagi tabiatdan olinishi hammaga ma'lum. Ammo uning muhofazasiga kelganda aksariyat loqayd bo'lib qolmoqda. Global isish, ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv zaxirasi, mingyillik muzlarning erishi, dunyo okeanining sathi ko'tarilishi va har xil tabiiy ofatlar antropogen omilining ta'siri deb o'ylaymiz. Ushbu falokatlarining oldini olish, tabiiy muhit muhofazasi va yaqin kelajak avlod uchun ona tabiatni ishonchli qo'llarda topshirish uchun davlatlarning ekologik majburiyatlari, xalqaro doirada nodavlat ekologik tashkilotlarning bu boradagi ishlari yuqorida batafsil tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekologiya huquqi. Darslik//Bozorov U.B., Xolmo'minov J.T. –TDYU, 2018.
2. B.Alixonov. ilmiy maqola:“Konstitutsiya - atrof-muhit muhofazasining huquqiy kafolati;
3. <https://environment.des.qld.gov.au/management>
4. <http://uznature.uz/uz/site/page?numer=103>
5. <https://www.unep.org/about-un-environment>
6. <https://www.worldwildlife.org/pages/our-values>
7. <https://www.clubofrome.org/about-us/secretariat/>
8. <https://www.gcint.org/what-we-do>
9. <https://www.greenpeace.org/static/international-annual-report-2021>.

⁸ <https://www.greenpeace.org/static/international-annual-report-2021>